

MUSIQIY MEROSIMIZ-MA'NAVIY BOYLIGIMIZ

Jamilov Sherzod Shotmon o'g'li

Qarshi shahar 9-son bolalar musiqa va san'at maktabida o'qituvchi

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Xalq hamda og'zaki an'anadagi musiqa, professional musiqa san'ati tarixi bu haqda guvohlik beradi. Madaniy yodgorliklarning tarixiga murojaat qilsak bugungi O'zbekiston hududida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar) o'rta asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimai o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi. Qahramonlik afsonalari, epik qo'shiqlar O'rta Osiyo xalqlarining o'z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining natijasi desak xato bo'lmaydi. O'z xalqining ozodligi yo'lida jonini qurbon qilgan cho'pon Shiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo'lgan muhabbati to'g'risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan. Rustam va uning janglari, malika Taxminaga bo'lgan muhabbati, tanimagan otasi qo'lida qatl qilingan o'g'li Suxrobning o'limi haqida hikoya qiluvchi qo'shiqlar xalq og'zaki ijodining namunalariga aylandi.

XI asr musiqa hayoti haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan "Qobusnoma" (Kaykovus kitobi) adabiyotning ajoyib yodgorligi hisoblanadi. Yozuvchi unda saroy muhitidagi musiqachilarning to'la bir kodeksini bayon qiladi, ular ijro etgan kuy va ohanglar rang-barangligiga to'xtaladi, vazn-ritmik tomonlari murakkabligidan kelib chiqib, kuylarning ohanglarini aniqlaydi. Ushbu kitob o'sha davrlarda musiqa tinglovchisiga ahloqiy ta'sir etish vositasi sifatidagina emas, undan davolash vositasi sifatida foydalanilganini ham tasdiqlaydi.

IX asrning 50-60 yillari o'zbek musiqa san'atining barcha sohalarida jiddiy siljishlar davri bo'ldi. Shu davrlarda o'zbek musiqasi tarixida bir qancha jahon musiqachilari tan olgan asarlar yaratildi, zabardast musiqachilar va hofizlar o'z ijodlari bilan jahon sahnalarini zabt etdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yoshlarning ma'naviyatini boyitishda, ularni estetik jihatdan tarbiyalashda, kamolot sari yetaklashda tarbiyaning boshqa vositalari qatori musiqa san'atiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu san'at turi o'zining betakror sehri bilan yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilib, kuy va ohang ta'sirida kishida hissiyot olamining oshishi, idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikka intilish kurtaklarining barg yozishi, go'zallikni sevish, ona tabiatni asrash, jonajon Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagining tobora ortib borishi hech birimizga sir emas. Mustaqillik yillarida ajdodlarimiz yaratgan an'analarni davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar ishlab chiqilib, quyidagi tarzda amalga oshirilmoqda:

- mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish;

- musiqiy merosni yosh avlodga bezavol yetkazish;
- ko‘rik-tanlovlar, festivallar, xalqaro musiqa anjumanlarini o‘tkazish.

Biz yoshlar jahon musiqa madaniyatini o‘rganish bilan bir qatorda asosiy e‘tiborni milliy musiqa merosimiz, an‘analarimizni o‘rganishga qaratmog‘imiz lozim. Bu borada Prezidentimiz I.Karimov ta’kidlaganidek “Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san‘atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi, bugungi musiqa san‘ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san‘at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda. Agar insonning qulog‘i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi.”

Durdona asarlarni o‘rganish, zamonaviy kuy va qo‘shiqlar yaratish, yetuk mutaxassis va ijrochi san‘atkorlar tayyorlash sohasida bugungi kunda qilinayotgan sa’yi harakatlarda A.Fitratning “ham o‘z milliy musiqamiz, ham Ovro‘po musiqasini yaxshi bilib oladigan talabalarni yetishtiraylik, kuylarimizni Ovro‘po musiqasi, ohanglari, usullariga ergashtirmasdan, o‘z ohangida qolishiga tirishaylik, kuylarning etnografik ahamiyatini yo‘qotmaylik” kabi fikrlari naqadar ahamiyatli va dolzarb ekanligini davr ko‘rsatib turibti. Shu borada milliy cholg‘ularimiz tarixiga e‘tiborni qaratmog‘imiz lozim.

O‘zbek milliy musiqa merosi qadimdan avloddan-avlodga og‘zaki tarzda ustoz va shogird an‘analari orqali o‘tib rivojlanib keldi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Tanbur, Dutor, Nay, G‘ijjak cholg‘ulari to‘rtta farishta, ya’ni elchi farishta Jabroil, olamni harakatlantiruvchi farishta Mikoil, oxiratda karnay chaluvchi bo‘ron farishtasi Isrofil, jon oluvchi farishta Azroillarning Odam Ato tanasiga jon kiritishdagi sayi-harakatlari tufayli vujudga kelgandir. Sozanda va mehtarlik risolalarida qayd etilishicha, ular jannatdan “dur”, ya’ni tut yog‘ochini olib chiqib cholg‘ularni yasagan ekanlar. Manbalarga tayanadigan bo‘lsak qadimgi So‘g‘diyonlar madaniyatiga oid Ayrtam matosiga solingan suratda bir necha musiqachi tasvirlangan. Ularning qo‘llaridagi naysimon, puflab chalinadigan asbob, arfaga o‘xshash torli cholg‘u asbobi, cho‘zinchoq shakldagi ikki tomonlama nog‘oralarga qarab So‘g‘dlar musiqiy cholg‘ularning asosiy xillarini bilganlari va bu cholg‘ulardan yakka holda hamda ansambl shaklida foydalanganliklarini bilib olishimiz mumkin.

Afsuski, bizning musiqiy cholg‘ularimiz haqidagi ayrim eng qadimiy yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan. Ular arab istilosi va mug‘ul bosqinlari davrida yondirib yuborilgan. Manbalarda keltirilishicha, arxeologlarning qidiruv ishlari natijasida Maroqanda (Qadimiy Samarqand), Xorazm, Baqtriyadan topilgan qazilma boyliklar orasida kattaligi 9-10 santimetr bo‘lgan loydan, gildan pishirib yasalgan musiqachilarning haykalchalari topilganligi ajdodlarimizning musiqiy madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarga kelib vokal musiqasi ancha rivojlandi. O'sha davrlarda yaratilgan musiqaga oid risolalarda vokal musiqaga san'atning eng muhim shakli deb urg'u berilgan bo'lsa-da, o'z navbatida cholg'u musiqasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mashhur bobokalonimiz, buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Al-Forobiyning "Kitob al-musiqiy al-Kabr" asarida "cholg'u musiqa ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovoza taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang'ich musiqasini va oralaridagi cholg'u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joylarini bo'rttirib musiqani boyitadi" degan fikrlar bayon etiladi. Al-Forobiy cholg'u asboblari ikki vazifani bajarishi haqida yozadi: birinchisi, ashulachiga jo'r bo'lishi, ikkinchisi yakka holda ijro etilishidir. Cholg'u asboblarning bu xildagi vazifalari hozirgi davrimizga qadar saqlanib kelmoqda. Forobiyning fikricha, kishi ovozigacha taqlid qila oladigan cholg'ular eng mukammal cholg'ular deb hisoblangan. Bu o'rinda u rabab (hozirgi g'ijjak) va surnay (hozirgi nay) cholg'ularini alohida ta'riflaydi. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z davrining musiqa cholg'ularini ikki, ya'ni torli va puflab chalinadigan guruhlariga bo'lib tasnif etadi. Uning rabab haqidagi ma'lumotlarida bu asbob kamon bilan chalinishi alohida ta'kidlanadi. Cholg'u asboblari tasnif etishda Ibn Sino torlarning sozlanishini, ya'ni mezbobni asosiy mezon deb hisoblaydi.

Cholg'u asboblari chalinayotgan asarning tovush tizimi, kuyning yo'nalish xususiyati va diapazonini hisobga olgan holda sozlangan. Bu mezonlar zamonaviy o'zbek musiqa amaliyotida ham hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Maqom asarlari ijro etilayotgan paytda, ayniqsa, dutor va tanbur asarning parda (maqom) tizimiga moslab sozlanadi. Tanbur Buzruk, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlarida kvartaga, Rost maqomida kvintaga, Navo maqomida esa katta sekundaga sozlanadi. Sozlarning o'zgartirilishi maqomlarning mukammal ijrosini ta'minlashga yordam beradi.

Dunyo xalqlari musiqa merosi, ayniqsa, milliy cholg'u asboblari bir necha tamoyil asosida tasnif etilib kelinadi. Ana shunday tamoyillardan biri musiqa asbobini chalish usuli va vositalari nuqtayi nazaridan tasnif etish hisoblanadi. Shu jihatdan o'zbek milliy musiqa cholg'ulari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Urma musiqiy cholg'ular - doira, nog'ora, qayroq, safoil, chindovul, tavlak, qoshiq, sagat (tarelka).

Damli cholg'ular – sibizg'a, nay, qo'shnay, surnay, bulamon, karnay.

Torli cholg'ular : Bu cholg'ular ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

a) torli noxunli–mezrobli cholg'ular–qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur, ud, qonun;

b) urma jarangli torli cholg'ular – chang;

v) chertma cholg'ular–do'mbira, dutor, chang deb nomlanib kelingan burchakli arfa.

Kamonli cholg'ular – g'ijjak, qo'biz, sato.

Chertma- agrofon (damli) cholg'ular – chanqovuz.

Musiqiy cholg'ularning vujudga kelishida xalqning hayoti, turmush tarzi, ruhiy olami, hissiy (emotsional) boyligi, dunyoqarashi, an'analari yetakchi omil hisoblanadi. Umuman olganda sozlarning yaratilishi insonning o'z dunyoqarashi, falsafiy estetik kechinmalarini badiiy ifodalashga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji bilan bog'liqdir. Musiqiy sozlarning yaratilish jarayoniga nazar soladigan bo'lsak, ibtidoiy tosh davridagi mavjud qayroqdan tortib hozirgi

zamonaviy cholgʻulargacha boʻlgan oʻnlab cholgʻu asboblari namunalarining guvohi boʻlamiz. Bu cholgʻular orasida asrlar osha mukammallashib bizgacha yetib kelgan sozlar ham mavjud. Manbalarda keltirilishicha, musiqiy sozlar tarkibiga kiruvchi urma va damli sozlar ilk bor bunyodga kelib keng ommalashgan. Ularning ommalashuvida hayot taqozosi muhim rol oʻynagan. Ijtimoiy taraqqiyot va turli tarixiy voqealar hamda vaziyatlarda musiqiy cholgʻularning turlicha shakllari yuzaga kelgan. Yakka ijrochilik eng qadimiy ijro shaklini tashkil etgan. Bunga misol qilib ovchilik bilan bogʻliq ijro jarayonlarini yoki xalq marosimlarida qoʻllanilgan qattiq ovoqli, ochiq maydonlarda chalinish uchun moʻljallangan urma va damli sozlarni keltirish mumkin.

Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida yaratilgan turli sanʼat namunalari, ijrochi yoki musiqa cholgʻulari aks ettirilgan tasviriy obidalarini tahlil etish shuni koʻrsatadiki, eramizning IV-V asrlaridan boshlab musiqiy cholgʻularning va ijrochilik yoʻllarining mukammallashuvi yuzaga kela boshladi. Darhaqiqat, ijtimoiy hayot rivoji jarayonida musiqiy janrlar, cholgʻularning turli namunalari ham kashf etildi.

ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.- 140-143 b.
2. Saidiy Said Boltazoda. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholgʻular Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2008.- 105 b.
3. B. Matyoqubov. Xorazm dostonlarining musiqiy xususiyatlari. Musiqa ijodiyoti masalalari. Toshkent: Toʻplam, 1997.- 31-32 b.